

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

**O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg`iri" asarining huquqiy  
ahamiyati**

*Termiz davlat universiteti*

*Yuridik fakulteti „Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo`yicha)  
yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

***Abdurofiyeva Nodirabonu***

**Annotatsiya:** Bu olamda yashar ekanmiz turli xil umr yo`llariga, chalkash taqdirlarga duch kelamiz. Shunday chalkash taqdirlardan biri bu Raxim Saidovning hayot yo`lidir. Inson borki o`z taqdirini, baxtini boshqa bir inson siyosida ko`rmoqlikni istaydi va ko`rishga intiladi ham. U ham ilmli, ziyoli Akademik olim bo`lishiga qaramay bir qizga ko`ngil qo`ydi. Biroq Raxim saidovning xarakteriga mutlaqo zid xarakterga ega ayol bilan munosabat qurish juda ham xavfli edi. Shunday ham bo`ldi. Bu ayol sababli hayotida juda ko`p ko`ngilsiz voqealar, urush-janjallar bo`lib turardi. Biroq bu ayolning bir xandon otib kulishi va chiroylı tabassumi hamma uning g`am-u g`ussalarga nuqta qo`yardi. Raxim Saidovni xotini vafot etdi. Qotillik! Rahim Saidovning bir maromda kechayotgan hayotida tub burilish yuz berdi. Mudhish jinoyat uning suyukli rafiqasini hayotdan erta olib ketdi. Hali ayoli tuprog`i sovushga ulgurmoy, baxtsiz erkakni taqdirning navbatdagi zarbalari esankiratib qo`ydi. Jinoyat tekshiruvi ayolining shu damgacha undan yashirib kelgan sirlarini yuzaga chiqardi. Aza ochib qayg`usiga botib o`tirishi kerak bo`lgan Rahim Saidov yechimsiz jumboqlar ortidan iz olishiga to`g`ri keldi. Kim biladi, agar fojia yuz bermaganida, u ayolini o`zi o`ylagancha to`kis bila olarmidi? Mazkur jumboqlar uni qanday kutilmagan voqealarga yetaklar ekan?

U juda yomon tushkunliklar dengiziga g`arq bo`ldi va ko`p o`tmay suyukli farishta xotinidan nafratlandi ham. Biroq ko`p o`tmay xotini xudbin bo`lsada erini o`ylaganini o`ylab nafratlangani uchun o`zidan xafa bo`lib ketdi. Ayol vafot etdi, biroq kim o`ldirdi ?, Nima uchun o`ldirdi? , Qotil balki ichimizdadir , aslida kim

*Ushbu savollarga ushbu maqolamiz davomida aniq va ravshan javob olamiz.*

**Kalit so`zlar :** Uzuk , Disertatsiya , marvarit , marjon, ixtiro, paxta navi, olim

O`lmas Umarbekov tomonidan yozilgan bu asar insonni muhabbat ko`chalariga sayr qildiradigan , biroq voqealar maromi esa insonni o`ylantirib qo`yadigan , qotilni topishga harchand urunilmasisin , uni topish yo`llarini chalkashtirib yuboradigan detektiv asardir. Asarda jinoyat ishini ochish jarayonidagi izlanishlar, militsiya xodimlari va izquvarlar olib borgan mashaqqatli qidiruvlar juda ishonarli va qiziqarli qilib tasvirlangan. Asar so`ngida jinoyatchilarining asl basharalari o`ta mohirlik bilan ochib beriladi. Voqealarni tushunib olish uchun dastlab asar qahramonlari bilan tanishtirib o`tsam maqsadga muvofiq bo`lgan bo`lar edi.

1.Raxim Saidov bu – asarning bosh qahramoni.U baland bo`yli,kelishgan , oq rangli inson. Bi shaxs o`ta bilimli , har ishg o`z mehnati bilan erishadigan , xarakter jihatda juda soda, haqiqatgo`y, kamtarin og`ir-bosiq insondir. U o`zining ko`nglidan ko`ra bosgqalarni xafa qilib qo`yishdan qo`rqadi . U xotinini juda ham yaxshi ko`radi va uning har xil kurakka turmaydigan xohishlarinib bajarib , uni xursand qilishga urunadi. Ota- onasini hurmat qiladigan tarbiyalai farzanddir.

2.Munis Saidova bu – Raxim Saidovning suyukli xotini.U oqchadan kelgan , chiroyli qad-qomatli , o`rta uzunlikdagi sochli, go`zal yuzli , quvnoq qiz. Xarakeriga keladigan bo`lsak : Xudbin, egoist, aytganini qiladigan va qildiradigan, arazchi, urushqoq, ayyor, kiyim-kechak, tilla – taqinchoqlarga o`ch ayol va u turmushga chiqgan bo`lishiga qaramay juda erkin. Xohlagan insoni bilan xohlagan vaqtida uchrashib, tongni kech qilib keladigan ayoldir.U asli Qo`qonlik va fransuz tilidan universitetda dars beradi. U farzandli bo`lishni xohlamas edi. Biroq aniqlanishicha u farzand ko`ra olmas edi. Biroq biror marotaba buni eri uni yuziga solmagan edi. Shunda ham bu erini boshqarishga urunardi.

Raxim Saidovning onasi juda mehribon ayol vas al ginachiroq.

Raxim Saidovning otasi qattiqqo`l, bir so`zli, mard, adolatli va mehribon

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

inson sifatida gavdalanadi.

Munis kelin bo`lib tushgan kechasini ertasiyoq shaharga yashaymiz deb xarxasha qiladi. Natijada qaynonasi va qaynotasi farzandining tinch yashamog`I uchun ularni shaharga kochirib yuborishadi.

Munisning otasi qizining xarakterini biladigan va uning qiladigan qiliqlaridan uyaladigan inson edi. Uni doim kiyoviga rahmi kelar edi va dalda berardi.

Munisning onasi xudi o`ziday ayol bo`lib , Munislarnikiga kelsa , doim kiyovini yomonlab o`tirardi. Munis uning yolg`iz qizi edi.

Kunlardan bir kuni har doimgidek ular orasida urush kelib chiqdi va bilmagan edilarki bu urush ularning oxirgi urushi ekanliklarini.

Odatda Munis eri bilan tortishsa , albatta eri haq bo`lsada yarashish uchun unga xushomad qilardi. Biroq ungacha Munis uydan chiqib ketar va tuning qoq o`rtasi bo`lsada kelardi. Raxim Saidov tushida xotining qo`lida qizil ko`zli ,yoqutli uzukni ko`rdi va u bir yigit bilan ketdi. Uyg`onib qarasa xotini uxlab yotgandi va uni bolishni quchgan qo`llarida o`sha uzuk bor edi. Raxim Saidov uni xotinidan qayerdan olganini so`radi . Xotini jaxl bilan u juda oddiy uzuk , juda arzon turishini aytdi va olib bermagani uchun ta`na qila boshladi. Xulas ikkovlari urushib qolishdi va Munis uzukni yerga uloqtirib yubordi . Raxim Saidov ishga ketdi va ajrashish haqida o`ylay boshladi . Biroq do`sti bu fikrdan qaytishini aytdi va do`stiga o`sha uzukning oltin , asl nusxasini olish uchun hozirgi kunda oyligi tushmagan do`stiga berdi . Raxim Saidov ishdan keyin tilla do`konidan o`sha uzukni so`radi va “qolmadi”- degan javobni oldi. Biroq savdogar boshqa qimmat uzuklarni tafsiya qildi. Raxim Saidov ertaga olishini aytib qaytdi . Yo`ldan vino hamda tort olib uyga qarab otlandi. Biroq uyda hech kim yo`q edi. U uxmlamay kutsada xotini soat alla mahal bo`lsada qaytmadi. U o`ziga oro bergen, o`sha otgan uzugini taqgan edi. U ko`chalarni qarab chiqdi, xiyobonlarni ko`rib keldi. Xotini yo`q. U militsiyaga xabar qilishdan uyalardi. Qo`qonga qo`ng`iroq qildi va xotini u yerga bormagandi.

Chorsuda bir ayolning oyoqlari butalar orasidan chiqib turgandi. Buni shu joyda ishlovchi bir qiz ko`rib militsiyaga xabar qildi . Uni ichib olgan, buzuqi ayol

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

deb o`ylashdi. Biroq u Raximning xotini edi. Izquvar , Zobit , militsiya xodimlari bu ish ustida ancha ishlashdi . Nixoyat uni do`konchi erkak o`ldirgani aniq bo`ldi. Xotini yuqorida aytib o`tilgani kabi , boylikga juda o`ch ayol edi . U erkak unga qimmat ko`ylaklar , tilla va marjonlar olib bergandi. U erkakning asl maqsadi Munisni o`ziniki qilishmas , aksincha Raxim Saidovning mehnatlari evaziga tayyorlagan ixtirosidagi dorisini xotini orqali olib , yo`q qilish edi. Chunki paxta navlari qancha zararlansa, shuncha uni narxi oshardi va unga bu daromad edi. Raxim Saidovning shifobaxsh suyuq dorisi o`simliklarning og`ir kasalliklarini davolashi aniq edi . O`sha kuni xotini uchrashuvga borganida , savdogar undan dorini olib kelishini so`ragan, biroq ayol yo`q degan. Natijada u ayolni pichoqlab ketgan. Bu shaxsni aniqlashda Militsiya xodimlari juda qiynalishdi va chorsuda bir ko`cha supuruvchi ayol Munis Saidovani shu erkak bilan ko`rganligi haqida guvohlik berdi va savdogarni mahkamaga chaqirishganida , savdogar tan olmadi.

Faqatgina Munis uning mijozи ekanligini va eslab qola olmaganini aytdi.

Raxim Saidov uyidan boshqa taqinchoqlarni topib, Munisning dugonalariga qo`ng`iroq qildi va ularniki emasligi aniq bo`ldi. Zargarga olib borganida asl mol ekanligi takidlandi . Hattoki Munisning qo`lidagi qizil ko`zli uzuk ham haqiqiy tilla uzuk edi . Raxim Saidov savdogarni uyiga borib, mushtlashdi va foydasi bo`lmadi. Politsiya xodimlari ham savdogarni uyiga borishdi hamda umid qolmadi degan vaqtlarida savdogarning ko`zi ojiz onasi bog`da ko`milgan pichoqni kovlab ,xodimlarga berdi va o`g`liga adolatli bo`lishini aytdi.Raxim Saidov xotining o`limiga na yig`lashni , na nafratlanishni bilar edi.

### **Xulosa**

Raxim Saidovga o`zining juda soddaligi pand berdi va xotinini ojizlarcha sevardi.

Xotini unga xiyonat qilgan bo`lsada, erining ixtirosini savdogarga bermay eriga bo`lgan sadoqatini namoyon qildi. Inson mehribon ,soddadil, haqiqatgo`y bo`lgani uni aybi emas va bu yaxshi fazilat . Biroq bunday insonlardan foydalanish o`ta ketgan pastkashlikdir va kechirilmas aybdi. Ushbu asarda qilingan jinoyat javobsiz qolmasligi , huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o`z ish faoliyatlarida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

judha sinchkov bo`lishlari mahorat bilan namoyish etilgan. Muallifning o`z mehnati asosida yaratgan ijod masulini muallifning roziligidiz egallash yoki yo`q qilish mumkin emasligi ham yana bir marotaba eslatib o`tilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1.O`lmas Umarbekov “Yoz yomg`iri” asari

[2. @kutubxona.APK](http://www.kutubxona.APK)